

## SINXRON TARJIMA: KELIB CHIQISH TARIXI, HOZIRGI KUNDAGI NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY MUAMMOLARI

*Mannonov Sarvar Samar o'g'li*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Tarjimonlik fakulteti 2507-guruh talabasi,*

*Ilmiy rahbar: **Ernazarova Nargiza Xidirovna***

*Ingliz tili amaliy tarjima kafedrası katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada sinxron tarjimaning nazariy asoslari va amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda sinxron tarjimaning lingvistik, psixolingvistik hamda kognitiv xususiyatlari yoritilib, tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar – vaqt tanqisligi, terminologik murakkablik, e'tibor va xotira yuklamasi kabi omillar ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada sinxron tarjima nazariyasini chuqurroq anglash, amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish va tarjimonlarni tayyorlash jarayonini rivovlantirishga oid tavsiyalar berib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** sinxron tarjima, tarjima strategiyalari, terminologiya, mahorat, ko'nikma

**Abstract:** This scientific article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations and practical aspects of simultaneous interpreting. The study highlights the linguistic, psycholinguistic, and cognitive features of simultaneous interpreting, examining key challenges in the interpreting process, such as time constraints, terminological complexity, attention, and memory load. In addition, the article offers recommendations for a deeper understanding of simultaneous interpreting theory, improving practical skills, and enhancing the training of professional interpreters.

**Keywords:** simultaneous interpreting, interpreting strategies, terminology, expertise, skills

**Аннотация:** В данной научной статье комплексно анализируются теоретические основы и практические аспекты синхронного перевода. Исследование освещает лингвистические, психолингвистические и когнитивные особенности синхронного перевода, рассматривая ключевые проблемы процесса перевода, такие как ограниченность времени, сложность терминологии, внимание и нагрузка на память. Кроме того, в статье даются рекомендации для более глубокого понимания теории синхронного перевода, совершенствования практических навыков и подготовки профессиональных переводчиков.

**Ключевые слова:** синхронный перевод, стратегии перевода, терминология, профессионализм, навыки.

Sinxron tarjima bugungi zamonaviy dunyoda o'zining murakkabligi, kuchli xotira va e'tibor talab etishi bilan tarjimonlar tomonidan tan olingan. Bu og'zaki tarjima turida so'zlovchi tomonidan aytilayotgan matnni bir vaqtning o'zida boshqa tilga tarjima qilish talab etiladi. Tarjimonlar sinxron tarjima vaqtida nafaqat tilni o'zgartiradilar, balki auditoriya bilan bevosita aloqada bo'lib, ma'lum bir vaqt ichida yuqori darajadagi aniq va to'liq muloqotni amalga oshiradilar. Shu sababdan ham bu kabi holatlar o'ziga xos texnik, psixologik va vaqt bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Eng muhimi, tarjimon notiq nutqi tezligidan orqada qolmasdan tarjima qilishi zarur. Shuning uchun sinxron tarjimonlar 20-30 daqiqa ishlab, keyin boshqa tarjimon bilan o'rin almashadi.<sup>1</sup> A.D.Shveytserning fikricha : “Bu jarayon, umuman olganda, nutq faoliyatiga aloqador qonuniyatlar bilan xarakterlanadi. Chunki nutq faoliyati insonlarning verbal muloqoti<sup>2</sup> jarayonida o'zaro ta'sirlarining voqealashuvidir. Tarjima jarayonida ikki til(asliyat yili va tarjima tili) jalb etiladi va nutqiy muloqot tarjimon ishtirokida amalga oshadi. Shu bois har qanday tarjimoni ikki tilli kommunikativ faoliyat sifatida tavsiflash mumkin”. Bundan ko'rinib turibdiki, bir tilda gaplashmaydigan ma'ruzachi va tinglovchi o'rtasida jonli aloqani ta'minlash, ko'prik vazifasini bajarishdir.

Shu tarjima turining tarixiy ildizlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, asl kelib chiqishi Birinchi jahon urushi paytlariga to'g'ri keladi. Urush yillarida fransuz tili xalqaro til hisoblangan va muhim davlat uchrashuvlari Fransiya shahrining o'zida bo'lib o'tgan. Ommaviy savodsizlik va aholi o'rtasida kadrlarning yetishmasligi Amerka va Buyuk Britaniya kabi qudratli davlatlar tarjimonlarga katta ehtiyoj sezgan. Sababi, muzokaralarni olib boruvchi shaxslar fransuz tili ni bilmasdilar. Ilk sinxron tarjimonlar tajribasi 1928-yilda VI Komintern Kongressida bo'lib o'tgan. So'zlovchining nutqi to'g'ridan to'g'ri tarjimonning quloqlariga yetib borar edi. Ilk kabina va quloqchin tushunchalari esa 1933-yilda Kominternning ijro etuvchi XIII yalpi majlisida paydo bo'ldi. Vaqtlar o'tib tarjimonlar birlashib, xizmat ko'rsatuvchi tarjimonlar guruhini tashkil etadilar. Bu guruh a'zolari 1942-yilgi Moskva pedagogika institutining bitiruvchilari edi, ular u yerda harbiy yozma va og'zaki tarjimonlar sifatida alohida mashq qildirilgan<sup>3</sup>. Tarjimonlar o'z faoliyatlarini Tokiodagi sud jarayonidan boshlaydilar. 1952-yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xalqaro-iqtisodiy konferensiya majlisida 50 ta sinxron tarjimon xizmat ko'rsatgan. Konferensiya 6 ta tilda: ingliz, rus, fransuz, nemis, ispan va xitoy tillarida olib borilgan. Va bu borada shu tillarda bemalol o'z ona tillaridek gapira oladigan tarjimonlarnigina saralab olishgan. Shu yo'sinda, o'tgan asrning 60-70-yillarida sinxron tarjimonlik sohasida Xenri Barek(AQSH), D.Gerver(Angliya), I.A.Zimnaya(Rossiya) kabi tilshunos olimlar yetishib chiqdi va

<sup>1</sup> Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2021. – 24 b.

<sup>2</sup> Verbal muloqot – kishi o'z fikri, hissiyoti, bilim va axborotni gapirish yoki yozish orqali boshqalarga yetkazishi

o'zlarining ilmiy izlanishlar olib bordilar.

Sinxron tarjima jarayonida tarjimon bir vaqtning o'zida tinglash va tarjima qilishni amalga oshiradi. Shu sababli, vaqt bosimi ostida ishlash, yuqori nutq tezligi va murakkab terminologiya kabi omillar kognitiv yuklamani oshiradi hamda tarjimaning aniqligi va ravonligiga ta'sir ko'rsatadi. Quyida bunday holatlarda uchraydigan asosiy muammolar va ularni kamaytirish strategiyalari keltirilgan :

### **1. Tushunish vaqtining qisqarishi (pauzalar yo'q)**

Tezkor yetkazib berish kognitiv qayta ishlash uchun mavjud vaqtni qisqartiradi, bu esa murakkab g'oyalar yoki texnik terminologiyani anglashni qiyinlashtiradi.

### **2. Tushirib qoldirish va buzilish xavfi**

Nutq juda tez bo'lsa, tarjimonlar murakkab tuzilmalarni soddalashtirishga urinish jarayonida ayrim muhim bo'lmagan tafsilotlarni beixtiyor tashlab yuborishlari mumkin.

### **3. Leksikani tez topishdagi qiyinchiliklar**

Sinxron tarjimonlar eng mos so'zlarni juda tez tanlashlari kerak bo'ladi, bu esa semantik noaniqliklar yoki taxminiy tarjima xavfini oshiradi.

### **4. Texnik muammolar**

Aloqa vositalaridagi uzilishlar, ovoz sifati pastligi yoki eshitish qurilmalaridagi nosozliklar tarjima jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, zalda shovqin, aks-sado (echo) yoki boshqa tovushlarning aralashib ketishi tarjimonning e'tiborining buzilishiga olib keladi.

Sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik, kognitiv va texnik muammolar tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammolarni kamaytirish yoki oldini olish uchun tarjimonning professional tayyorgarligi, texnik ta'minotning ishonchliligi hamda ish jarayonining to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida sinxron tarjimada samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi asosiy yechim va choralar yoritiladi:

#### **1. Oldindan tayyorgarlik ko'rish**

Mavzuga oid materiallar, asosiy terminlar va ehtimoliy nutq tuzilmalari bilan oldindan tanishish tushunish jarayonini tezlashtiradi.

YUNESKO va BMT yoki boshqa turdagi davlat tadbirlarida tarjimonlarning so'rovnomasiga binoan tashkilotlar tomonidan oldindan tayyorlanish uchun tadbir nutqi tarjimonga jo'natiladi, lekin ba'zi hollarda bu so'rovnoma rad etiladi.

#### **2. Kontekstga tayangan holda tarjima qilish**

Nutqning umumiy mazmuni va mantiqiy yo'nalishiga tayanish tushirib qoldirilgan elementlarni mazmunga mos ravishda to'ldirishga yordam beradi. Bundan tashqari, turli murakkablikdagi nutqlar bilan muntazam ishlash tarjimonning tezkor qaror qabul qilish va xatolarni kamaytirish qobiliyatini rivojlantiradi.

### 3. Tadbir boshlanishidan oldin manzilga yetib kelish

Tarjimonlarga tadbir boshlanishidan bir soat oldin belgilanganjoyga yetib kelib, sinxron tarjima kabinasini, quloqchinlarni oldindan tekshirish va eng muhimi ovoz yetarli darajada kelayotganini , tadbir mexmonlari uchun ham bir xil tonda ketishini ta'minlash tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, sinxron tarjimon tayyorlash masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Shu sababdan ham bugungi kunda poytaxtimizda joylashgan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti har yili mingdan ortiq malakali tarjimonlarni yetishtirib chiqarmoqda. Universitetda tarjimonlar tayyorlashga ixtisoslashgan alohida Tarjimonlik fakulteti mavjud bo'lib, fakultet 1994-yilda tashkil topgan. 2019-2020 o'quv yilidan boshlab 70230202-Sinxron tarjima (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi bo'yicha qabul kvotasi ajratilgan. Bu esa jamiyatimizda malakali tarjimonlar, xususan sinxron tarjimonlar yetishib chiqishiga zamin yaratmoqda. Sinxron tarjimon tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasali dasturlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, bo'lajak tarjimonlarni ixtisoslashtirish, sinxron tarjimonlarga ko'proq amaliyot jarayonlarini tashkil etish, xorijning ilg'or tajribalarini ta'lim tizimiga keng tadbiriq qilish sinxron tarjimon tayyorlashdagi mavjud muammolarga yechim bo'la oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tuxtasinov I.M. Sinxron tarjimon tayyorlashning bugungi holati va istiqboli. – Toshkent, 2024. – 3-4-6-b.
2. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2021. – 24 b.
3. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, “Tafakkur Bo'stoni”; 2012. 167-168-b.
4. Nizamova L.S. The linguistic and cognitive challenges of simultaneous interpretation: a multidimensional analysis. – “Science shine” journal. – 128-b.